

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA INGLIZ TILINI O’QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Toshmatova Madinaxon Qodirovna

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Kasimova Yulduz Malikovna

Namangan davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21156368>

Annotatsiya: ushbu maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarni ingliz tiliga o’qitish jarayonida differensial yondashuv, kommunikativ metod, multimodal ta’lim, kooperativ o’qitish hamda raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari o’rganilgan. Shuningdek, inklyuziv ta’lim muhitida elektron ta’lim resurslari, interaktiv platformalar va assistiv texnologiyalardan foydalanishning o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, raqamli savodxonligi, mustaqil ta’lim faoliyati hamda ijtimoiy moslashuv ko’nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqolada inklyuziv ta’lim tizimida ingliz tilini o’qitishni takomillashtirishga qaratilgan metodik tavsiyalar hamda pedagogik yechimlar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: inklyuzivlik, differentsiallashtirish, multimodallik, kommunikativlik, kompetentlik, individuallashtirish, raqamlashtirish, integratsiyalashuv, adaptatsiyalashuv, innovatsionlik, interaktivlik, kooperatsiyalashuv.

Abstract: This article analyzes the methodological foundations of using modern pedagogical and digital technologies in teaching English within the context of inclusive education from a scientific and pedagogical perspective. The study examines the didactic potential of differentiated instruction, communicative methods, multimodal learning, cooperative learning, and digital educational technologies in teaching English to students with special educational needs. Furthermore, the article highlights the significance of utilizing electronic educational resources, interactive platforms, and assistive technologies in an inclusive educational environment for developing students’ communicative competence, digital literacy, independent learning skills, and social adaptation abilities. The article also presents methodological recommendations and pedagogical solutions aimed at improving English language teaching within the inclusive education system.

Keywords: inclusivity, differentiation, multimodality, communicativeness, competency, individualization, digitalization, integration, adaptation, innovation, interactivity, cooperation.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы методические основы использования современных педагогических и цифровых технологий при обучении английскому языку в условиях инклюзивного образования. В

исследования рассмотрены дидактические возможности дифференцированного подхода, коммуникативного метода, мультимодального обучения, кооперативного обучения, а также цифровых образовательных технологий в процессе обучения английскому языку учащихся с особыми образовательными потребностями. Кроме того, раскрыта значимость использования электронных образовательных ресурсов, интерактивных платформ и ассистивных технологий в инклюзивной образовательной среде для развития коммуникативной компетентности, цифровой грамотности, навыков самостоятельной учебной деятельности и социальной адаптации обучающихся. В статье также разработаны методические рекомендации и педагогические решения, направленные на совершенствование преподавания английского языка в системе инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивность, дифференциация, мультимодальность, коммуникативность, компетентность, индивидуализация, цифровизация, интеграция, адаптация, инновационность, интерактивность, кооперация.

KIRISH

Jahon ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim konsepsiyasi inson huquqlari, ta’limda teng imkoniyatlar va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy pedagogika fanida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarni umumiy ta’lim muhitiga integratsiyalash, ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifatli ta’lim bilan qamrab olish masalalari ustuvor ilmiy yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida ingliz tilining xalqaro muloqot, ilm-fan, innovatsiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy vositasiga aylanishi inklyuziv ta’lim muhitida ushbu fanni o’qitish metodikasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda ingliz tilini o’qitishda kommunikativ yondashuv, differensial ta’lim, shaxsga yo’naltirilgan pedagogik texnologiyalar, Universal Design for Learning (UDL), assistiv texnologiyalar hamda raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarning lingvistik, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu bois inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalashning metodik asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo’lmoqda.

O’zbekiston Respublikasida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalarning sifatli ta’lim olish huquqlarini ta’minlash hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o’quv jarayoniga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida barcha fuqarolarning ta’lim olish huquqini ta’minlash, ta’limning ochiqligi va inklyuzivligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi

PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori bilan 2020–2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalarni umumta’lim muassasalariga integratsiyalash, moslashtirilgan o’quv dasturlarini joriy etish va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishning ustuvor vazifalari belgilab berildi [2].

Mazkur yo’nalishdagi islohotlar O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham o’z aksini topib, unda ta’lim sifatini oshirish, raqamli ta’lim muhitini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda inklyuziv ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish muhim strategik maqsadlar sifatida qayd etilgan [3]. Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori bilan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishni tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlar tasdiqlanib, inklyuziv ta’limning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo’yicha huquqiy asoslar yanada mustahkamlandi [4].

Pedagogika va metodika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda inklyuziv ta’limning nazariy asoslari, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarni o’qitish metodlari hamda raqamli texnologiyalar vositasida ta’lim samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan. Xususan, F.U. Qodirova va D.A. Po’latovalarning ilmiy ishlari inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik hamda metodik jihatlarini ochib berishga xizmat qilsa [5], xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan Universal Design for Learning, multimodal ta’lim va assistiv texnologiyalar konsepsiyalari inklyuziv muhitda chet tillarini o’qitish metodikasining ilmiy-metodologik asoslarini boyitmoqda [6].

Shu nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslarini tadqiq etish, ularning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Inklyuziv ta’lim sharoitida chet tillarini, xususan, ingliz tilini o’qitish metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogika va metodika fanlarining dolzarb ilmiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. So’nggi yillarda ta’limning insonparvarlik paradigmasiga asoslangan rivojlanishi, barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurati hamda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi inklyuziv ta’lim muhitida ingliz tilini o’qitishning nazariy va metodik asoslarini qayta ko’rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur yo’nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va moslashtirilgan metodik yondashuvlar muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

O’zbekistonlik olimlar F.U. Qodirova va D.A. Po’latovalarning inklyuziv ta’limga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarida inklyuziv ta’limning

pedagogik, psixologik va ijtimoiy asoslari atroflicha yoritilgan. Mualliflar alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarni umumiy ta’lim muhitiga integratsiyalashda individual yondashuv, differensial ta’lim hamda moslashtirilgan o’quv dasturlarining ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar [7]. Ushbu yondashuvlar inklyuziv sinflarda ingliz tilini o’qitish jarayonini tashkil etishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Shuningdek, R.A. Mavlonova, N.H. Rahmonqulova va K.M. Vohidovalarning pedagogik texnologiyalar hamda ta’lim jarayonini loyihalashga oid ilmiy qarashlarida o’quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanish va o’quv faoliyatini faollashtirishning nazariy jihatlarini keng tahlil qilingan [8]. Mualliflarning fikricha, ta’lim jarayonining samaradorligi o’quvchi shaxsining imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash bilan bevosita bog’liqdir. Bu esa inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitishda moslashuvchan pedagogik texnologiyalardan foydalanish zaruratini asoslaydi.

Pedagogika sohasidagi tadqiqotlarda N. Muslimov, Q. Abdullayeva va M. Usmonboyevlar tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar konsepsiyasi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega [9]. Mazkur tadqiqotlarda ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o’quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini rivojlantirish hamda innovatsion metodlarni qo’llash mexanizmlari yoritilgan. Ushbu ilmiy qarashlar inklyuziv sinflarda ingliz tili bo’yicha kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodikasini takomillashtirish uchun muhim nazariy asos bo’lib xizmat qiladi.

A.A. Xoliqovning pedagogik mahorat va innovatsion ta’lim texnologiyalariga oid tadqiqotlarida ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o’qituvchi faoliyatining refleksiv jihatlarini hamda ta’lim sifatini oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslangan [10]. Mazkur qarashlar inklyuziv ta’lim muhitida raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligini izohlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh.S. Sharipovning ta’limda innovatsion jarayonlar va pedagogik texnologiyalarni joriy etishga bag’ishlangan ilmiy ishlari ta’lim muhitini modernizatsiyalash, raqamli platformalar asosida o’qitishni tashkil etish hamda ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish masalalarini qamrab oladi [11]. Ushbu ilmiy qarashlar ingliz tilini o’qitishda elektron ta’lim resurslari, multimediya vositalari va interaktiv platformalardan foydalanishning metodik imkoniyatlarini ochib beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko’rsatadiki, inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitish bo’yicha ilmiy tadqiqotlarda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish, moslashtirilgan o’quv muhitini yaratish va raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish masalalari yetakchi o’rin egallaydi. Biroq zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo’llashning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish hamon dolzarb ilmiy muammolardan biri bo’lib qolmoqda.

Ilmiy tadqiqot ishimizda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

– ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili metodi – inklyuziv ta’lim, chet tillarni o’qitish metodikasi va raqamli pedagogika bo’yicha ilmiy manbalarni o’rganish hamda tizimlashtirish maqsadida;

– komparativ tahlil metodi – milliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o’rganish, samarali metodik yondashuvlarni aniqlash maqsadida;

– pedagogik kuzatuv metodi – inklyuziv sinflarda ingliz tili darslarini tashkil etish jarayonini monitoring qilish va o’quvchilarning o’quv faolligini baholash maqsadida;

– so’rovnoma metodi – o’qituvchilar hamda o’quvchilarning zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid munosabatlarini aniqlash maqsadida;

– kontent-tahlil metodi – o’quv dasturlari, darsliklar, elektron ta’lim resurslari va metodik materiallarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish maqsadida;

– pedagogik tajriba metodi – ingliz tilini o’qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo’llash samaradorligini aniqlash maqsadida;

– statistik tahlil metodi – tadqiqot natijalarining ishonchligi va obyektivligini ta’minlash maqsadida.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitish samaradorligi o’quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi pedagogik texnologiyalar, raqamli ta’lim vositalari hamda kommunikativ-kompetensiyaviy yondashuvlarning o’zaro integratsiyasiga bevosita bog’liqdir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik imkoniyatlari pedagogik kuzatuv, so’rovnoma, o’quv faoliyati natijalarini tahlil qilish hamda qiyosiy baholash metodlari asosida o’rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, ingliz tili ta’limiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan o’quvchilarning kommunikativ, lingvistik va kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda sezilarli ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Tadqiqot davomida ingliz tili mashg’ulotlarida differensial ta’lim, kooperativ o’qitish, multimodal ta’lim, gamifikatsiya, raqamli ta’lim platformalari hamda assistiv texnologiyalar elementlarini qo’llash natijasida o’quvchilarning o’quv motivatsiyasi va dars jarayonidagi faolligi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, audio-vizual materiallar, interaktiv topshiriqlar va moslashtirilgan elektron resurslardan foydalanish eshitish, ko’rish hamda nutq rivojlanishida muayyan cheklovlarga ega bo’lgan o’quvchilarning ingliz tilini o’zlashtirish ko’rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qildi.

Pedagogik kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, an’anaviy metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o’quvchilarning o’quv faoliyatida passiv ishtirok etish holatlari ko’proq uchrasa, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar qo’llangan mashg’ulotlarda o’quvchilarning mustaqil faoliyatga jalb qilinish darajasi sezilarli ravishda ortgan. Bu holat o’quvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirishda faoliyatga yo’naltirilgan yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida inklyuziv sinflarda ingliz tilini o‘qitish samaradorligini baholash maqsadida bir qator pedagogik indikatorlar bo‘yicha tahlil amalga oshirildi.

1-jadval

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar samaradorligining kompleks ko‘rsatkichlari.

№	Baholash mezon	An’anaviy yondashuv (%)	Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalar asosida (%)	O‘shish dinamikasi (%)	Pedagogik izoh
1.	Kommunikativ kompetensiyaning shakllanish darajasi	58,4	84,7	+26,3	Muloqotga kirishish va nutqiy faollik oshdi
2.	Tinglab tushunish (Listening) ko‘nikmasi	61,2	86,5	+25,3	Audio va multimediyaviy vositalari samaradorligi
3.	O‘qib tushunish (Reading) kompetensiyasi	64,8	88,1	+23,3	Adaptiv matnlar va elektron resurslar ta’siri
4.	Lug‘at boyligining rivojlanishi	59,6	85,9	+26,3	Vizual va interaktiv metodlar samaradorligi
5.	Mustaqil ta’lim faoliyati ko‘nikmalari	54,3	87,2	+32,9	Raqamli ta’lim platformalari imkoniyatlari
6.	O‘quv motivatsiyasi darajasi	62,5	91,4	+28,9	Gamifikatsiya va interaktiv topshiriqlar natijasi
7.	Dars jarayonidagi faollik ko‘rsatkichi	60,7	89,6	+28,9	Hamkorlikdagi o‘qitish texnologiyalari ta’siri

8.	Individual ta’lim ehtiyojlarini qondirish darajasi	51,8	88,7	+36,9	Differensial yondashuv samaradorligi
9.	Raqamli kompetensiyalar ning shakllanishi	47,9	90,2	+42,3	AKT vositalari bilan ishlash ko’nikmalar i rivojlandi
10.	Inklyuziv ta’lim muhitiga moslashuv darajasi	63,1	89,4	+26,3	Ijtimoiy integratsiya va hamkorlik kuchaydi

2-jadval

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o’qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning kompetensiyalar rivojlanishiga ta’sirini baholash modeli.

No	Kompetensiya indikatorlari	Nazorat guruhi (M±SD)	Eksperimental guruhi (M±SD)	Farq (%)	t-mezon
1.	Kommunikativ kompetensiya	3,42 ± 0,71	4,58 ± 0,54	33,9	4,28
2.	Tinglab tushunish ko’nikmasi	3,51 ± 0,68	4,63 ± 0,49	31,9	4,17
3.	O’qib tushunish kompetensiyasi	3,67 ± 0,73	4,71 ± 0,46	28,3	3,94
4.	Yangi leksik birliklarni o’zlashtirish	3,45 ± 0,69	4,66 ± 0,48	35,1	4,53
5.	Mustaqil ta’lim faoliyati	3,12 ± 0,77	4,69 ± 0,42	50,3	5,21
6.	Raqamli kompetensiyalar	2,98 ± 0,81	4,74 ± 0,38	59,1	5,84
7.	O’quv motivatsiyasi	3,54 ± 0,66	4,82 ± 0,31	36,2	4,91
8.	Darsdagi faollik	3,48 ± 0,72	4,77 ± 0,35	37,1	4,79
9.	Individual ehtiyojlarning qondirilishi	2,91 ± 0,84	4,69 ± 0,41	61,2	6,03
10.	Inklyuziv muhitga moslashuv	3,63 ± 0,61	4,76 ± 0,39	31,1	4,34

Izoh:

M – o’rtacha arifmetik qiymat.

SD – standart og‘ish (Standard Deviation).

t-mezon – Student t-statistikasi.

p<0,05 – natija statistik jihatdan ishonchli.

p<0,01 – natija yuqori darajada statistik ishonchli.

Tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori o‘rish ko‘rsatkichi raqamli kompetensiyalarni shakllantirish mezonida (+42,3%) kuzatilgan. Bu zamonaviy ta’lim muhitida ingliz tilini o‘qitish jarayonining nafaqat lingvistik, balki texnologik kompetensiyalarni rivojlantirishga ham xizmat qilishini anglatadi. Shuningdek, individual ta’lim ehtiyojlarini qondirish darajasi bo‘yicha qayd etilgan (+36,9%) natija differensial va moslashtirilgan ta’lim texnologiyalarining inklyuziv ta’limdagi ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi.

Raqamli platformalar (elektron ta’lim resurslari, interaktiv mashqlar, virtual o‘quv muhiti) orqali tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ingliz tilidagi nutq faoliyatini faollashtirish, o‘zlashtirish sur‘atini oshirish hamda individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, multimodal yondashuv asosida bir vaqtning o‘zida matnli, vizual va audio axborotlardan foydalanish alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining qabul qilinishi va qayta ishlanishini sezilarli darajada yengillashtirgan.

Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitish samaradorligi faqatgina o‘quv materialining mazmuni bilan emas, balki ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodik vositalar, pedagogik texnologiyalar va raqamli resurslarning o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniyatini kengaytirsam, raqamli texnologiyalar ta’limning moslashuvchanligi va interaktivligini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim umumta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim uchun moslashtirilgan elektron resurslarning yetarli emasligi, o‘qituvchilarning assistiv texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha metodik tayyorgarligi barcha hollarda bir xil darajada emasligi hamda raqamli infratuzilmaning hududlar kesimida farqlanishi kuzatildi. Mazkur omillar kelgusida inklyuziv ta’lim uchun maxsus raqamli ta’lim resurslarini yaratish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va metodik ta’minotni takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, mustaqil ta’lim faoliyati, raqamli savodxonligi hamda ijtimoiy integratsiyasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

“Inklyuziv ta’lim sharoitida ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Inklyuziv ta’lim muhitida ingliz tilini o‘qitish jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni integratsiyalash alohida ta’lim ehtiyojlariga ega

boʻlgan oʻquvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim didaktik omil ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, differensial yondashuv, kooperativ oʻqitish, kommunikativ metod hamda multimodal taʼlim texnologiyalaridan foydalanish oʻquvchilarning ingliz tilidagi nutqiy faoliyatini faollashtirib, ularning til kompetensiyalarini samarali shakllantirish imkonini beradi.

2. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan taʼlim muhiti inklyuziv taʼlimning individualizatsiya tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Elektron taʼlim platformalari, interaktiv dasturlar, multimedia vositalari va assistiv texnologiyalar oʻquvchilarning individual oʻquv ehtiyojlarini hisobga olish, oʻquv materiallarini moslashtirish hamda taʼlim jarayonining moslashuvchanligini taʼminlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalarida individual taʼlim ehtiyojlarini qondirish koʻrsatkichi eng yuqori natijalardan birini qayd etgani ushbu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi.

3. Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarning integratsiyalashgan qoʻllanilishi oʻquvchilarning nafaqat lingvistik kompetensiyalarini, balki raqamli savodxonligi, mustaqil taʼlim faoliyati, tanqidiy fikrlash hamda oʻz-oʻzini boshqarish koʻnikmalarini rivojlantirishga ham ijobiy taʼsir koʻrsatishi aniqlandi. Xususan, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va mustaqil taʼlim faoliyatini shakllantirish koʻrsatkichlari boʻyicha qayd etilgan yuqori natijalar ingliz tili taʼlimining kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi zarurligini koʻrsatadi.

4. Tadqiqot natijalari inklyuziv taʼlim sharoitida ingliz tilini oʻqitish samaradorligi pedagogik texnologiyalar, raqamli resurslar va oʻqituvchining metodik kompetentligini oʻzaro integratsiyalashgan holda qoʻllash bilan bevosita bogʻliqligini tasdiqladi. Shu sababli inklyuziv taʼlim uchun moslashtirilgan metodik taʼminot, maxsus elektron resurslar hamda pedagoglarning raqamli-metodik kompetensiyalarini rivojlantirish taʼlim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tavsiyalar:

1. Inklyuziv taʼlim muassasalarida ingliz tilini oʻqitish uchun Universal Design for Learning (UDL), differensial taʼlim va multimodal yondashuv tamoyillariga asoslangan moslashtirilgan metodik komplekslarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq. Bunda alohida taʼlim ehtiyojlariga ega boʻlgan oʻquvchilarning psixofiziologik xususiyatlari va individual rivojlanish trayektoriyalari inobatga olinishi lozim.

2. Ingliz tili oʻqituvchilarining inklyuziv pedagogika, assistiv texnologiyalar va raqamli taʼlim vositalaridan foydalanish boʻyicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus malaka oshirish kurslari, trening dasturlari va metodik seminarlarni tizimli ravishda tashkil etish zarur.

3. Inklyuziv taʼlim muhitida foydalanish uchun moslashtirilgan elektron darsliklar, interaktiv platformalar, audio-vizual kontentlar, sunʼiy intellekt elementlariga ega adaptiv oʻquv resurslari va raqamli baholash vositalarini yaratish hamda ularni umumtaʼlim maktablari amaliyotiga keng joriy etish tavsiya etiladi. Bu oʻquvchilarning ingliz tili boʻyicha kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning raqamli

savodxonligi va mustaqil ta’lim faoliyatini ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ–4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”.
5. Qodirova F.U., Po‘latova D.A. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Chirchiq, 2022.
6. CAST. Universal Design for Learning Guidelines. AQSH, so‘nggi nashrlar.
7. Qodirova F.U., Po‘latova D.A. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. – Chirchiq: Chirchiq davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2022.
8. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Vohidova K.M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
9. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Abdullayeva Q.M. Pedagogik kompetentlik va innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Sano-standart, 2015.
10. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2011.
11. Sharipov Sh.S. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2020.